

Stol tennisi musobaqalari

2020-yil 3-dekabr kuni institut sport majmuasida 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-yilligi munosabati hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusni ikkinchi tashabbus aynan yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida "Gidrotexnika qurilishi" fakulteti 1-bosqich talaba-yoshlari o'rtasida "SPORT - SOG'LIK GAROVI" shiori ostida sportning "Stol tennisi" turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Tadbirda fakultet dekani B.B.Hasanov va yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari A.I.Azimov va boshqa dekan o'rinbosarlari hamda 1-bosqich talaba-yoshlaridan 52 nafari ishtirok etishdi, shundan 1-o'rinni 104-guruh talabasi Islomov Ixtiyor, 2-o'rinni 110-guruh talabasi Zayniddinov Alijon va 3-o'rinni 107-guruh talabasi Muxamedov Otabek egalladi.



TIQXMMI matbuot xizmati